

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**« IQTISODIYOT » fakulteti**

**«Iqtisodiyot» kafedrası**

**“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan**

**« O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish »  
mavzusidagi**

# **KURS ISHI**

Topshirdi:

I 161- gurux talabasi  
M.Hamroyev

Qabul qildi:

J.Farmonov

**Qarshi 2016 y.**

# REJA:

Kirish.

Asosiy qism.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasining mazmuni va mohiyati .

2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash.

3. O'zbekistonning tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integrastiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish har bir mamlakat uchun nihoyatda muhim masala sanaladi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo'lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi. Bu esa bevosita tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi siyosat instrumentlariga taqaladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, bu yil barchamiz ona yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri – Vatanimiz mustaqilligining 25 yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz. Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi.

# **1. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasining mazmuni va mohiyati.**

«Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikni kafolati deb bilamiz».

I.Karimov

Sivilizastiyaning rivojlanishi alohida olingan davlatlarni xalqaro xo'jalik aloqalariga muntazam ravishda jalb etishga olib keladi, bu esa yagona global jahon iqtisodiyotini barpo etishga imkon yaratadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar umumiy iqtisodiy qonunlarga ko'ra rivojlanadi, bu qonunlar xalqaro munosabatlar iqtisodiy xarakterining ustuvor bo'lishini kafolatlaydi.

Ehtiyojlarning doimo murakkablashib boradigan tarkibi, resurslar taqchilligi va olisligi nafaqat alohida olingan davlat ichidagi hududlar o'rtasida, balki turli davlatlar va jahon mintaqalari o'rtasida ham yanada samaraliroq ayirboshlash vositalarini talab etadi.

Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy rivojlanish va aholining o'sishi notekis yuz beradi, bu ham xalqaro ayirboshlashni kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi; ushbu jarayonlar yangi bozorlar (tovarlar, xizmatlar, mehnat, axborot, moliya va boshqa bozorlar)ni rivojlantirishga, xomashyoni olib kirishga, texnologiya va axborotlarni ayirboshlashga, ilmiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, madaniy va boshqa tashqi iqtisodiy aloqalarga imkon yaratadi.

O'zbekistonda ko'plab korxonalar va birlashmalar, korporastiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirmoqdalar, xorijlik investorlar ishtirokida yirik investistiya loyihalarini amalga oshirmoqdalar, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligini butun choralar bilan kengaytirmoqdalar va chuqurlashtirmoqdalar. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ushbu shakllari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu ta'sir natijalarining tahlili va xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishni hisobga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari

belgilash tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchalarining mazmuni to'g'risidagi aniq tasavvurga asoslanishi kerak.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar** - iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning sub'ektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir.<sup>1</sup>

Davlat sub'ekti tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir. Bu tushuncha O'zbekistonda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng keng qo'llanila boshladi, chunki biz sovet xukumati davrida xorijiy davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarda mustaqil ishtirok etish imkoniyatidan maxrum edik.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish 1991 yil 14 iyundagi O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonuni bilan tartibga solinadi, qonunning yangi tahriri 2000 yil 26 mayda e'lon qilingan edi, va unga ko'ra tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladiariga ular zimmasiga davlat tomomnidan yuklangan huquq va majburiyatlarning tasarrufchilari kiradi. Bular o'zini-o'zi boshqaradigan hududlar, ularning mulkchilik shaklidan qat'i nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (akstiyadorlik jamiyatlari, davlat korxonolari, kichik va o'rta korxonalar, xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar, xususiy tadbirkorlar va hokazolar)dir.

Binobarin, tashqi iqtisodiy aloqalar bir aniq mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimoti, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xil munosabatlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir.

---

<sup>1</sup>Alimov, I.Axmedov. O'zbekiston respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari .T.2004.9-B

Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va fanni ixtisoslashtirish, xo'jalik hayotini baynalmillashtirish jarayonidan ob'ektiv ravishda kelib chiqadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi aalohida olingan mamlakatlarning o'zaro aloqalari va bir-biriga bog'liqligining kuchayishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari turli sohalarda: tashqi savdo, faoliyatining ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, investistiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniy va sport turlari, mehnat resurslarini olib o'tishda o'rnatiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu barcha turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin: savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish), qo'shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida, ayniqsa, keng tarqalgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblanadi. Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar stivilizastiya mahsulotidir. Ular davlatlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga, ayniqsa, feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo'jalikdan tovar-pul munosabatlariga o'tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarini rivojlantirishga va ushbu milliy bozorlarning tovar ayirboshlashida keskin sakrashni tug'diradi, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalmila aloqalar va xalqaro ayirboshlash kengayishi va chuqurlashishiga olib keldi.

Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar barcha turdagi resurslarning davlatlar va turli davlatlarning iqtisodiy sub'ektlari o'rtasidagi harakati paytida yuzaga keladigan ishlab chiqarish – iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil qiladi. Ushbu ikki taraflama munosabatlar davlat iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalo, uning ishlab chiqarish, savdo, investistiyaga oid va moliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar orqali jahon bozorining tovar va xizmatlarga talabi muayyan davlatning ichki bozoriga o'tkaziladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarni

rivojlantirishga imkon yaratadi, bu, o'z navbatida, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, moliya muassasalari va xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Mamlakat ichki bozorining rivojlanishi natijasida davlat ichida taklif hajmi talab hajmidan o'sib keta boshladi, bu hol tashqi savdo operastiyalarining kengayishi, sarmoya qiymatining arzonlashishi va ishlab chiqarish hamda muomala chiqimlarining kamayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
2. Tashqi savdo faoliyati;
3. Xorijiy investistiyalarni jalb qilish;
4. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida investistiya faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik - ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta faoliyati, ta'lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa soqalarda qonun qujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, xizmatlar (ishlar) va intellektual mulk savdosi soqasidagi bitimlarni amalga oshirish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir.

Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon xo'jaligining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me'yorlar, balki xalqaro huquq standartlari bilan ham tartibga solinadi. Tabiiyki, milliy huquq reglamentastiyalari bilan xalqaro iqtisodiy huquq o'rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud. Bir tomondan, davlatlarning huquq sohasidagi suverenitetini e'tirof etmaslik mumkin emas, boshqa tomondan esa xalqaro qoidalar ustuvorigini

tan olish zarurati u yoki bu mamlakatlar suvereniteti sohasiga kattagina cheklovchi ta'sir ko'rsatadi.

Milliy huquqiy hujjatlarni davlatlararo shartnomalarga muvofiq tarzda muayyan darajada birxillashtirish hozirgi bosqichda ushbu muammoning eng maqbul echimi hisoblanadi, ya'ni xalqaro huquqning qoida va me'yorlari amaliyotda milliy qonun hujjatlari orqali ro'yobga chiqariladi.

O'zgartirish jarayonlarining keskinligi O'zbekiston milliy qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga keltirish jarayonida muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Ushbu vazifa izchillik bilan bir necha bosqichlarda hal etib borildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga taalluqli qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlarning ko'pligini e'tiborga olib, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga kirishi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy boshqarish strategiyasining o'ziga xosliklarini va ham mintaqaviy miqyosda, ham alohida mamlakatlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorligining tegishli ustuvorliklarini belgilab berdi.

2000 yil boshida mamlakatimiz dunyoning 38 davlati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi, 35 davlat bilan esa sarmoya kiritishni rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi kelishuvlarni imzoladi.<sup>2</sup> Bu o'rinda ham huquqiy-shartnomaviy bazani shakllantirishda songa emas, balki sifatga e'tibor qaratildi, ya'ni har bir kelishuv O'zbekistonning milliy manfaatlaridan va sherik davlatning o'ziga xosliklaridan kelib chiqib tayyorlandi.

O'zbekistonning AQSh bilan ko'p qirrali hamkorligining huquqiy bazasini takomillashtirish jarayoni jadal olib borildi, hozir 20 dan ortiq o'zaro kelishuv va shartnomalar amal qilmoqda, ular qatorida kapital qo'yilmalarni rag'batlantirish va himoya qilish haqidagi kelishuv ham bor. Amerika qit'asi davlatlari ichida AQShdan tashqari katta sarmoya resurslariga va texnologik imkoniyatlariga ega

---

Alimov, I.Axmedov. O'zbekiston respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari .T.2004. 24Y-B.



bo'lgan Kanada bilan shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning rivojlanayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Uzoq muddatli, barqaror va umum tan olingan tamoyillar asosiga qurilgan o'zaro xo'jalik hamkorligini ta'minlovchi Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni huquqiy ta'minlash orqali o'z strategik manfaatlariga erishish maqsadida O'zbekiston qator ikki tomonlama shartnomalardan tashqari, sherikchilik va hamkorlik to'g'risida kelishuv shaklida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi umumiy kelishuvni ham imzolagan, u 1998 yil iyunida kuchga kirgan. Uni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va O'zbekiston Respublikasi bilan Evropa hamjamiyati va unga a'zo davlatlar o'rtasidagi Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuvni amalga oshirish bo'yicha 2000-2005 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi hukumatining asosiy tashkiliy chora-tadbirlari umumiy dasturi qabul qilindi.

MDH mamlakatlari bilan munosabatlar ham jadal rivojlanmoqda. Hamdo'stlik mamlakatlari bilan munosabatlar ilgari mavjud bo'lgan iqtisodiy aloqalarning tabiiy davomi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda MDH mamlakatlari bilan aloqalar madaniy savdo-sotiq olib borishga to'siq bo'layotgan moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi tufayli murakkablashmoqda.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasini ishlab chiqishda va takomillashtirishda jahonning boshqa mintaqalari mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ham muhim ahamiyat berish kerak.

Xalqaro moliya-iqtisodiy tashkilotlarga a'zolik ko'p tomonlama hamkorlik darajasida shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirish siyosati doirasida O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarflik kasb etmoqda. 1994 yildan boshlab O'zbekistonning Umumjahon savdo tashkilotiga kirishi bo'yicha huquqiy

tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, bu tashkilotga a'zolik O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik milliy qonunchilik asosida ham huquqiy tartibga solinadi. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun bu jarayonning samaradorligini ta'minlayda, unda O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini tuzish, uzaytirish va bekor qilish huquqiy vositalarining amal qilishida tegishli vazirliklar va idorlarning vakolatlari, ixtisoslashuvlari aniq belgilangan. Bu qonun mamlakat bo'yicha umuman tashqi aloqalarning shartnomaviy-huquqiy bazasini rasmiylashtirish sohasini rivojlantirishga olib keldi.

90-yillardayoq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni har tomonlama muvofiqlashtirishda muhim o'rin egallaydi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, bu qonun iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan bozor usullariga bosqichma-bosqich o'tish, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish sharoitlarida iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida muhim rol o'ynadi. Biroq 90-yillarning ohirlarida boshlangan mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish jarayonlari tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish oldiga yangi-yangi talablarni qo'ya boshladi. Bundan tashqari, respublikada ushbu qonunga u yoki bu darajada daxldor bo'lgan qator qonunlar qabul qilindi. "Valyuta boshqaruvi to'g'risida", "Xorijiy investistiyalar to'g'risida", "Bojxona tarifi to'g'risida", "Investistiya faoliyati to'g'risida", "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlar shular jumlasidandir. Shu munosabat bilan 2000 yilning may oyida mamlakat parlamenti tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi, unda bu sohada keyinchalik qonun yaratish faoliyati uchun asos bo'ladigan tashqi iqtisodiy faoliyatning konseptual asoslari aniq belgilab berildi. Ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi

yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi<sup>3</sup>.

Qonunning yangi tahririda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullarini ustuvorligi metodologik tamoyil sifatida aniq belgilandi hamda davlat va uning organlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari ishiga noqonuniy aralashishlari man qilindi. Qonunning yangi tahriri moddalari mamlakat qonunchiligida yuz bergan o'zgarishlarni, tashqi savdo rejimini erkinlashtirish vazifalarini hamda boshqa tahririy tuzatishlar va qo'shimchalarni hisobga olib yangilandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston milliy iqtisodiyoti sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirishga qaratilgan, shu jumladan, eksport va import operastiyalarini tariflar vositasida va notarif boshqarishni tartibga solish, eksport mahsuloti ishlab chiqarishni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar ko'rildi.

Mazkur choralarning hammasi imtiyozli tusda bo'lib, amaldagi huquqiy me'yorlardan ba'zi istisnolarni taqozo etadi. Biroq ular shunchaki imtiyozlar tizimi emas, barcha ko'rsatilgan imtiyozlar tizimi aniq yo'nalishga ega: ular yuqori darajada qayta ishlangan eksport mahsulotini ishlab chiqaradigan korxonalaridagina tatbiq etiladi, shu sababli undan savdo-vositachi tashkilotlar, xom ashyo resurslarini eksport qiluvchi va shu kabi boshqa tashkilotlar foydalana olmaydilar.

Tabiiyki, o'z mahsulotining faol eksportini ta'minlash bozorning xorijiy qatnashchilari bilan hamkorlik qilishda yanada real bo'lib bormoqda. Shu sababli mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari va ularning xorijlik sheriklari uchun qonun hujjatlarini muvozanatlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining mamlakatimizga chet el investistiyalari oqimini tartibga soluvchi maxsus qonunlari qabul qilindi, 1994 yilda qabul qilingan ana shunday yo'nalishdagi dastlabki qonun ("Chet el investistiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari

---

to'g'risida") so'zsiz, chet el investistiyalarini jalb etishda ijobiy rol o'ynadi, lekin xo'jalik amaliyotining real holati uni yanada takomillashtirishni taqozo etdi, shuning uchun unga muayyan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borildi (1994, 1995, 1997 yillarda). 1998 yilda O'zbekiston Respublikasida "Chet el investistiyalari to'g'risida"gi yangi Qonun amalga kiritildi, u iqtisodiy rivojlanishning o'zgarib borayotgan sharoitlariga javob beradi, jahon hamjamiyatida chet ellik investorlar va chet el investistiyalariga nisbatan qabul qilingan barcha talablar va qoidalarni e'tiborga oladi.

Jahon hamjamiyatida allaqachon tadbirkorlikning milliy rejimini xorijiy qatnashchilarga tatbiq etish belgilovchi qoidaga aylangan. U bir qator xalqaro hujjatlar: Xalqaro savdo palatasining "Xalqaro investistiyalar uchun amal qiluvchi qoidalar", Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Sarmoya harakatini erkinlashtirish kodeksi" va "Xalqaro sarmoya qo'yilmalari va ko'p millatli korxonalar to'g'risida"gi deklarastiyasida mustahkamlangan. Bundan tashqari, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi chet el investistiyalari rejimi to'g'risida amal qiluvchi qoidalar"ni qabul qildi, unda chet el sarmoyasini biror-bir mamlakatga kiritish qoidalari, rejimni qo'llashga doir standartlar, sarmoya va foydalarni o'tkazish tartibi, nizolarni bartaraf etishning qoida va mexanizmlari, bir qancha boshqa jihatlar ta'riflangan.

Milliy rejim qoidasi dunyoda borgan sari kenga tarqalmoqda. Investistiya chorlarining savdo jihatlariga doir kelishuvga muvofiq, Umumjahon savdo tashkiloti ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar uchun investistiya choralariga tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv doirasidayoq qabul qilingan tadbirkorlikning milliy rejimi qoidasi tatbiq etiladi. Bundan tashqari, xalqaro savdoda miqdoriy cheklashlardan voz kechish qoidasi qayd etilgan.

"Chet el investistiyalari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq va o'z institutlari bilan davlat chet ellik investorlarga O'zbekiston Respublikasi hududida investistiya faoliyatini amalga oshirishlari paytida ularning huquqlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Moddalarning birida shunday deyiladi: "Chet ellik

investorlar va chet el investistiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Chet el investistiyalarini huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan aalga oshirilayotgan investistiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas”.

Shu bilan birga chet ellik investorlarga xalqaro huquq qoidalariga muvofiq g'oyatda keng huquqlar, jumladan, investistiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash, investistiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish, o'zining investistiyalariga va investistiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish erkinligi berilgan.

Chet ellik investorlar investistiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qiladilar, olingan daromadni mustaqil tasarruf etadilar, respublikaga kerditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'larini jalb qilish, o'zlaridagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish huquqiga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga egadirlar.

Chet ellik investorlar uchun investistiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday xorijiy davlatning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish imkoniyatlari yaratilgan. Ular butun O'zbekiston hududi bo'ylab erkin harakatlana oladilar, mamlakatimiz investorlari bilan teng holda sug'urta himoyasiga bo'lgan huquqdan foydalanadilar.

“Chet el investistiyalari to'g'risida”gi Qonunning asosiy qoidalari xalqaro amaliyotda qabul qilingan talablarga to'la muvofiq keladi, zero, chet ellik investorlar respublika ichki bozorida mamlakatimiz investorlari bilan teng

sharoitlarga qo'yilgan. Biroq shuni e'tiborga olish joizki, ushbu qonunga ko'ra, chet ellik investorlar O'zbekiston hududida chet el investistiyalari ishtirokidagi korxonalarni barpo etishlari va ularga respublika qonun hujjatlariga binoan taqdim etiladigan imtiyozlar tizimidan foydalanishlari mumkin. Ushbu imtiyozlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 20 martda qabul qilingan "Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1996 yil 31 mayda qabul qilingan "Chet el investistiyalari ishtirokidagi korxonalarni barpo etish va ular faoliyatini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2005 yil 11 aprelda qabul qilingan "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investistiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarida va bir qator boshqa qonun hujjatlarida ta'kidlangan.

Shunday qilib, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati borgan sari xalqaro huquq me'yorlariga yaqinlashtirilayotgan mustahkam qonunchilikka asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatda kechayotgan iqtisodiy islohatlarni tahlil kilib shunday deydi: «O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirish sohasida faol ish olib bormokda. Mamlakatning jahon xujalik aloqalarida, xalqaro mehnat taksimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir»<sup>4</sup>.

Davlat mustaqilligiga erishilishi O'zbekiston uchun mustaqil ravishda o'z rivojlanish modelini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochdi.

Bu rivojlanish modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga integrastiyalashuvi yo'nalishlarini belgilashga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng ko'lamda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni qurishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham

---

iqtisodiyotimizning kelajagini uning jahon xo'jaligiga integrastiyasida ko'rishimiz mumkin.

Mintaqaviy integrastiya doirasida hamkorlik qilish amaliyoti va xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyo iqtisodiyotiga integrastiyalashuv mamlakat xalq xo'jaligi doirasida ruy beradigan turli xildagi tarkibiy o'zgarishlar bilan, shuningdek integrastiya jarayonlarining katalizatori bo'lib xizmat qiluvchi tashqi iqtisodiy aloqalarning yangi mexanizmlarini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bunday zarurat, jahon xujaligi tizimiga integrastiyalashayotgan O'zbekiston iqtisodiyotida ham turli xildagi tarkibiy o'zgarishlarni vujudga keltirish va uning tashqi iqtisodiy aloqalari sohasida yangi mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etadi.<sup>5</sup>

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha aniq bir maqsadga yo'naltirilgan siyosatni olib borish, xo'jalik sub'ektlariga xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatishda katta erkinliklar berish, respublikamizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijda sotish, tovarlar eksporti va importiga yanada imtiyozli tartiblarni joriy qilish — bular siyosatimizning zamonaviy bosqichdagi ustuvor yo'nalishlar

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish mintaqaning rivojlanishi va davlatlar iqtisodi uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov integrastiya haqida gapirar ekan, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integrastiya turlari mavjudligiga asoslanadi. "Biz integrastiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz. Faqat o'zining tor milliy qobig'ida qolib ketmagan bozorgina xorijiy investistiyalarning katta oqimini jalb qilib, mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlay oladi"

---

## **2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash.**

1991-yil 31-avgust – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining rasmiy e'lon qilingan kuni – davlatimizning xalqaro hamjamiyatga keng ko'lamli va dinamik integratsiyasi boshlangan sana hisoblanadi.

2015-yil 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston dunyoning 130 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan.

Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilotlarning vakolatxonalari, 3 ta diplomatik mavqega ega bo'lgan savdo vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan aloqalarni rivojlantirmoqda.

Mamlakat Tashqi siyosiy faoliyati kontsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaq bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etishga, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni izga tushirishga ko'maklashishga, Markaziy Osiyoning transchegaraviy daryolari suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishni va mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlashga, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini yakunlashga, yangi tahdidlarga qarshi kurash borasida samarali chora-tadbirlar ko'rishga, barcha qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro yaqin, manfaatli va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgandir.



O‘zbekiston o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib qoladi, mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal etilishini yoqlaydi.

O‘zbekiston Afg‘onistonga nisbatan an‘anaviy tarzda bu davlatning ichki ishlariga aralashmaslik pozitsiyasiga asoslanib, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona siyosat yuritadi, u bilan o‘z munosabatlarini o‘zaro milliy manfaatlardan kelib chiqib va afg‘on xalqi tanlagan yo‘lni hurmat qilgan holda ikki tomonlama asosda tashkil etishni ma’qul topadi. O‘zbekistonning fikriga ko‘ra, afg‘on muammosini hal etishning yagona yo‘li - siyosiy muzokaralar yo‘li bo‘lib, donor-mamlakatlarning moliyaviy, iqtisodiy va insonparvarlik ko‘magi, hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining faol ishtiroki asosida o‘zaro kurashayotgan tomonlar o‘rtasida kelishuvga erishishdir.

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi MDHga a‘zo mamlakatlardir. O‘zbekistonni bu davlatlar bilan tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalar bog‘lab turadi. O‘zbekiston MDHning barcha mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini teng huquqli, o‘zaro foydalimanfaatli, bir-birining manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilish asosida yo‘lga qo‘yishni davom ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi shartnoma (2004-yil 16-iyun), Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma (2005-yil 14-noyabr), shuningdek Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya (2012-yil 4-iyun) asosida Rossiya Federatsiyasi bilan do‘stona aloqalarni izchil rivojlantirish va har tomonlama mustahkamlash har ikkala mamlakat manfaatlariga mos keladi hamda mintaqada barqarorlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni va investitsion hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda diversifikatsiya qilish, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish va mintaqaviy xavfsizlik

masalalaridagi hamkorlik - O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning muhim jihatlaridir.

Amerika Qo'shma Shtatlari bilan mushtarak manfaatlar asosida har tomonlama o'zaro foydali va amaliy hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Ushbu munosabatlar 2002 yilning 12 martida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan AQSh o'rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiyaga asoslanadi. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatishga ko'maklashish, transmilliy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va islohotlar jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsiyalar va texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ikki tomonlama aloqalarning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Yevropa davlatlari, shuningdek Yevropa Ittifoqi va NATO bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga muhim e'tibor qaratadi. Savdo, investitsion va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, yuksak texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi aloqalar, shuningdek mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash masalalari O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamda tashkilotlari bilan hamkorligining muhim yo'nalishlaridir.

O'zbekiston o'zining yaqin mintaqaviy qo'shnisi hamda global muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadigan davlat sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik sherikchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashdan manfaatdordir. Xitoy bilan ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish 2012-yil 6-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi Strategik sherikchilikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyaga, 2013-yil 9-sentyabrda imzolangan Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va Ikki tomonlama strategik sherikchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyaga asoslanadi.

Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi barcha yetakchi mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli asosda savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish, O‘zbekiston iqtisodining ustuvor ishlab chiqarish sohaslariga investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb etish, shuningdek fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va turizm sohaslarida aloqalarni rivojlantirish hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish tarafdoridir. Jumladan, Hindiston va Pokiston bilan savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor.


Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan, jumladan IHT va ITB doirasida o‘zaro manfaatli munosabatlar iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari, moliya va investitsiya sohaslarida izchil rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston nufuzli xalqaro tashkilotlar ishida, eng avvalo BMT faoliyatida ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston BMTni dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish, hozirgi shiddat bilan davom etayotgan globalizatsiya jarayonlarida davlatlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashga ko‘maklashish borasidagi yagona universal va mas’ul tashkilot deb biladi.

Respublikamiz shuningdek mintaqaviy tashkilotlar ishida ham faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotini doirasida mintaqaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurash, a’zo mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashish, qo‘shma infratuzilmaviy va investitsion loyihalarni amalga oshirish borasidagi hamkorlikni rivojlantirish tarafdori.

O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkiloti doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorligining ustuvor yo‘nalishlariga savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, xavfsizlikning transmilliy tahdid va xavf-xatarlariga qarshi kurashish masalalari hisoblanadi.

## 2014-yil yakuni bo'yicha eksport ko'rsatkichlari



### **3. O'zbekistonning tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyasi.**

Har qanday mamlakatdagi tashqi iqtisodiy faoliyatning tartibga solinishi boshqa mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyati natijalarida, albatta, aks etadi, chunki jahonning har xil mamlakatlari ishlab chiqarishi, tovar almashinuvi va iste'moli bir-biriga bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi va kengayishi bilan TIFni ko'p tomonli tartibga solish kuchaymokda. Har bir mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy huquq me'yorlari, ikki taraflama bitimlar, mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonli kelishuvlar asosida tartibga solinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro tartibga solish BMT tizimidagi va unga kirmaydigan xalqaro tashkilotlar doirasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan. Bu 1947 yilda jahon savdosining bojxona-tarif masalalarini tartibga solish uchun tuzilgan ta'rif va savdo bo'yicha asosiy kelishuv—. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) dir.

Barcha mamlakatlarining jahon savdosini erkinlashtirishga intilishi Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) doirasidagi kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillarida aks etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kamsitmaslik, o'zaro eng qulay usullarni taqdim etish;
- milliy bozorlarni muhofaza qilishning ko'prok tarif vositalaridan foydalanish;
- bojxona tariflarini uzluksiz tarzda tushirish;
- savdo-siyosiy yon berishda hamkorlik qilish;
- mojarolarni kengash va muzokaralar yordamida yechish.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) 1948 yildan 1994 yilgacha yagona savdoni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot edi. (YUNKTAD kabi boshqa xalqaro tashkilotlarning savdo-siyosiy masalalardagi qarorlari ko'proq tavsiyaviy xususiyatga ega). Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) "raund"larda ishlab chiqilgan va qabul qilingan qator kodeks va kelishuvlardan

iboratdir. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning mavjudligi davrida 8 ta raund o'tkazilgan. Ularning har birida sanoati rivojlangan mamlakatlarda bojxona tariflarini pasaytirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan, natijada o'rtacha import tariflari stavkasi 1947 dagi 40-60% dan 1990 yillar boshida 3-5% gacha kamaydi.

TIFning bevosita qatnashchilari uchun tarifsiz (tarifdan tashqari) cheklashlarni, ya'ni chet el tovarlarining ichki bozorga kirishga har xil to'siqlarni tartibga solish bo'yicha Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning oxirgi ikki - Tokio va Urugvay raundlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tasnifiga ko'ra, tarifdan tashqari cheklashlar besh guruhga bo'linadi.

*1. Davlatning tashqi savdo tadbirlarida qatnashishi: eksport tovarlarini subsidiya qilish, tovarlar sotib olishning davlat tizimi.*

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning subsidiya va kompensatsiya choralari bo'yicha kelishuviga o'ziga xos, ya'ni bo'lak korxonalar yoki korxonalar guruhiga beriladigan subsidiya tushunchasi kiritilgan edi.

Agar import tovari davlat subsidiyasi bilan ishlab chiqarilgani aniqlansa, importchi mamlakat qat'iy belgilagan rasm-rusularga ko'ra olib kelingan tovarga badal bojini qo'yishga haqi bo'ladi, bunda milliy va import tovarlari bozorda bir xil mavqeda bo'ladi. Badal bojining miqdori davlat subsidiyasi miqdoriga qarab belgilanadi. yevropa Ittifoqi qonunchiligi davlat tomonidan subsidiya qilishning barcha ko'rinishini insofsiz raqobat turiga kiritadi va ushbu qonunlarga rioya qilishni nazorat etish maqsadida raqobat qoidalarini buzganligi uchun uchinchi mamlakatlar korxonalariga jarima solish huquqiga ega bo'lgan yel komissiyasiga topshiriladi.

*2. Importning bojxona va ma'muriy rasmiyatchiliklari: antidemping bojlari, bojxona qiymatini baholash usullari, tovarni yetkazib berishda zarur bo'lgan hujjatlarga qo'yiladigan talab.*

